

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'ZINI O'ZI BAHOLASH TIZIMINI NAMOYON BO'LISHI

Z.A.Akmalova

Alfraganus universiteti psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15300312>

Ma'lumki, bolada ijobiy o'z o'ziga baho berishni shakllatirish uchun bola doimo mehr mavjud bo'lgan muhitda katta bo'lishi muhim, bunda beriladigan mehr bolaning ayni paytdagi holati, uning yaxshi yomonligiga (bugun u idishlarni yuvib qo'ydimi yoki piyolani sindirib qo'ydimi) bog'liq bo'lmaydi. Ota-onaning doimiy muhabbati bolaga o'z qadr qimmatini his qilishiga yordam beradi, ammo doimiy muhabbat ota-onaning bola xulq-atvori xatti-xarakatlarini ob'ektiv baholashdan voz kechishni taqazo etmaydi. Tanbeh berilayotgan xatti-harakatni bolaning shaxsiga nisbatlash noto'g'ri, agar bola yolg'on gapirsa, uni shu yolg'on uchun jazolash mumkin, lekin uni yolg'onchi deb atash mumkin emas. Ota-onaning o'z farzandi haqidagi salbiy replikalari bolalarning ongiga singib qoladi va ularning o'z o'ziga baho berishini transformatsiyasiga olib keladi.

Kichik maktab yoshida bola o'z-o'ziga baho berishi tashqi muxitdagi odamlarning fikrlariga asoslanadi va bola ularni tanqidsiz qabul qiladi. Bunday tashqi ta'sirning salmog'i to o'smirlik davrigacha davom etadi. Ijobiy o'z-o'ziga baho berishga ega o'smirlarning oilasidagi muhit tadqiq etilganda, ularning oilalarida ota-onalar va farzand orasida doimiy yaqin munosabatlar mavjudligi aniqlandi. Ota-onalarning farzandlarining muammosiga chuqur qiziqish bilan qaraganlar, ularni hal qilishda ishtirok etganlar, bolalari nafaqat qiziqish, rahm shavqat balki hurmatga sazovor ekanliklarini tan olganlar. Aytish mumkinki, ota-onalarning bunday munosabati bolalarda o'z o'ziga ijobiy yondashishini shakllanishiga olib keladi [2].

Odatda, bolalar maktabga unga nisbatan ijobiy munosabatda keladilar. Keyinchalik, qobiliyati pastroq yoki yaxshi tayyor bo'lmagan bolalarda past baho olish bilan bog'liq salbiy tajriba to'planadi bunda motivatsiya o'zgaradi – maktabga va ta'lim olishga munosabat salbiy tomonga o'zgaradi, o'qishdagi ortib boradigan murakkablik o'z-o'ziga baho berish pasaytiradi. O'z-o'ziga baho berishning pasayishini oldini olish uchun N.A.Menchinskaya past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga o'zidan kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'qituvchi rolini topshirishni tavsiya etadi. Bunda o'quvchida o'qishda mavjud bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirishga ehtiyoj paydo bo'la boshlaydi, bu ishdagi muvaffaqiyat esa uning o'z-o'ziga baho berishini muvozanatga kelishiga sabab bo'ladi. Adekvat o'z-o'ziga baho berishning buzilishi maktabga yaxshi tayyor o'quvchilarda ham paydo bo'lishi mumkin [1]. Yaxshi tayyorgarlik ularga kichik maktab yoshida muvaffaqiyatli o'qishga yordam beradi, ular o'qishga deyarli kuch sarflamaydilar. Oson keladigan omadga odat natijasida doimiy maqtovga o'rganish paydo bo'ladi, o'z-o'ziga yuqori baho berish, ehtiyojlarning darajasi ko'tarilishi shakllanadi. Katta sinflarga o'tganda o'quv materialining murakkablashuvi natijasida bunday o'quvchilarda mehnat ko'niklari yetishmasligi tufayli qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin, buning natijasida ular boshqa sinfdoshlariga nisbatan pastroq o'zlashtirishga erishishlari mumkin bu esa ularning o'z-o'ziga baholashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar pedagog qo'yadigan baho yakuniy natijanigina emas balki bolaning mehnat urinishlarini inobatga olingan holda berilsa, bu omil o'quvchining mehnat urinishlarini zaruriy darajada ushlab turishiga, adekvat o'z-o'ziga baho berishni shakllantirishiga olib keladi.

O'qituvchining ustanovkasini bolaning o'z-o'ziga to'g'ri baho berishiga ta'siriga alohida

ahamiyat berish kerak. Amerikalik psixologlar Rozental va Yakobsonlar tomonidan qo'yidagi eksperiment qo'llaganlar: o'quv yilining boshida ular o'qituvchilarni ayrim "kech gullovchi" o'quvchilardan muvaffaqiyatni faqat yilning so'ngida olish mumkin ekanligiga ishontiradilar. Aslida esa "kech gullovchi" o'quvchilar sifatida mutlaqo tasodifiy o'quvchilar tanlangan [3]. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, "kech gullovchi" o'quvchi sifatida tanlangan o'quvchilarning o'zlashtirishi haqiqatdan ham boshqa o'quvchilarga nisbatan ancha yaxshilandi. Bunday yaxshilanish ayrim ma'noda o'qituvchilarning kutishlariga bog'liq, ular o'zlari bilmagan holda "kech gullovchi" o'quvchilarga nisbatan muayyan ustanovkalarini amalga oshirganlar, xususan, bu ustanovkalar muloqotda, yuz qiyofasida, gapirish tonida, jestalarida ya'ni ularning ijobiy kutishlarini o'quvchilarga anglatishi mumkin bo'lgan barcha omillarda seziladi. Misol uchun, agar o'qituvchi o'quvchidan yuqori intellektual salohiyat kutayotgan bo'lsa, bu o'quvchi javob berish uchun doskaga chiqqanda o'qituvchi undan javobni uzoqroq rag'bat ma'nosidagi yuz qiyofa bilan kutib turadi. Berilgan eksperimentlar ma'lumotlarini qayta ishlash natijasida ma'lum bo'ldiki, agar o'qituvchida ta'limning past samaradorligiga nisbatan ustanovka shakllangan bo'lsa, u ixtiyorsiz ravishda shu ustanovkani o'quvchi bilan muloqotda sabrsizlik, befarq yuz qiyofasi orqali namoyon qiladi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchining o'z-o'ziga baho berishini pasaytiradi va o'zlashtirishning real pasayishiga olib keladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, barcha omillar tengligida past o'z-o'ziga baho beruvchilarning 35% yolg'izlikdan azoblanmaganlar, yuqori o'z-o'ziga baho beruvchilar orasida bu miqdor 86 % tashkil etgan. Past o'z-o'ziga baho beruvchilar ish xonada musobaqalashuvdan voz kechadilar negaki maqsad qo'yganda unga erishni umid qilmaydilar [2].

Yuqori o'z-o'ziga baho berish insonning boshqalarning ularga munosabatidan qat'iy nazar o'z prinsiplariga binoan faoliyat ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Agar o'z-o'ziga baho berish unchalik yuqori bo'lmasa bu holat insonning o'z o'zini his qilishiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin, chunki u tanqidga nisbatan sabrni shakllantiradi. Shuning uchun, tanqidga nisbatan qat'iy himoya reaksiyasini hosil qilmaydi va to'g'ri qabul qilinadi. Agar insonning ehtiyoji darajasi imkoniyatlari darajasidan farqli ravishda juda yuqori bo'lsa ruhiy muvozanat shakllanishi mumkin emas. Yuqori darajadagi o'z-o'ziga baho berishga ega insonlar o'zining imkoniyatlaridan qat'iy nazar, ishga beriladilar va muvaffaqiyatsizlik esa ularni muvozanat buziladi va inson muvaffaqiyatsizlik uchun mas'uliyatni boshqa odamlarga yuklashga harakat qiladilar. Ba'zan, bolalikda boshqalar tomonidan singdirilgan o'zining ahamiyati to'g'risidagi yuqori tasavvur, shu insonning baxtsiz bo'lishiga olib keladi va hayoti davomida o'z o'ziga hurmat hissining kamsitilishidan azob chekadi.

Bu uslubiyat-Amerikada ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik S.L.Rubinshteyn tomonidan qayta ishlangan. Bolalarning o'z-o'zlariga baho berishlari, o'zlariga tanqidiy qarashlari o'rganiladi. Asosan shaxsiy sifatning qay darajada shakllanganligini ko'rsatib beradi. Buning uchun bolalarga quyidagi topshiriqlar beriladi: sog'liq, aql, baxt, go'zallik kabi tushunchalar taklif etiladi. Bu tushunchalarning 9 ta darajasi yoki sifatini bolalar o'zlariga shu tarzda tanlashlari taklif etiladi. Bu darajalar narvon shaklida yuqoriga ko'tarilgan sari bu tushunchalardagi sifatlar kamayib boradi. Masalan aql tushunchasida 1 daraja eng aqlli hisoblansa, 4 daraja esa eng aqlsiz daraja sifatida belgilangan va hokazo. Sinaluvchilarning har bir tushuncha bo'yicha bergan javoblari maxsus jadvalni birlashtirib, ularning nomal tengdoshlarinikiga taqqoslansa, juda qiziqarli manzaraning guvohi bo'lamiz. Olingan

ma'lumotlar asosida bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tarzda rejalashtirishimiz mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zini o'zi baholash tizimini o'rganish maqsadida "Zina" metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika yordamida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida o'ziga beradigan bahosini shakllanganlik darajasini aniqlash mumkin. O'z navbatida metodika natijalariga ko'ra, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zini o'zi baholash xususiyatlaridan o'ziga noadekvat juda yuqori baho berish, o'ziga yuqori baho berish, adekvat baholash, o'ziga noadekvat past baho berish darajalarini namoyon bo'lish jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodikasi tanlab olingan sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, olingan natijalar miqdor jihatdan tahlil qilindi va shunga muvofiq jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zini o'zi baholash ko'rsatkichlari

Sinaluvchilar	O'ziga noadekvat juda yuqori baho berish	O'ziga yuqori baho berish	Adekvat baholash	O'ziga noadekvat past baho berish
30 nafar	28,7%	32,6%	16,5%	22,2%

Natijalar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'ziga noadekvat juda yuqori baho berish shkalasi 28,7 ko'rsatkichini tashkil qiladi. Bu ularning ko'p narsani qila olishga qodirman deb o'ylashlari bilan izohlanadi. Sinaluvchilarda ortiqcha o'ylanmasdan o'zini eng yuqori zinapoyaga qo'yadi; onasi ham uni huddi shunday baholaydi deb hisoblaydi; o'z tanlovini izohlashda kattalar fikriga tayanadi: "Men yaxshi bo'laman, juda yaxshi bolaman. Onam menga shunday deganlar".

O'ziga yuqori baho berish shkalasi sinaluvchilarda 32,6% ni tashkil qiladi. Inson borki u orzu qilish, atrofdagilarga monand ravishda intilish xususiyatiga ega. Shu nuqtai nazardan olganda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda baxt bu o'z orzu qilgan narsaga intilish hamda uni qo'lga kiritish bo'lsa, qaysidir ma'noda bu o'z oldiga katta-katta maqsadlarni qo'yish va unga intilishdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bir oz ikkilanish va o'ychanlikdan keyin o'zini yuqori zinapoyaga qo'yadi; o'zining ba'zi kamchiliklarini vaziyat taqazosi, unga bog'liq bo'lmagan holat sifatida tavsiflaydi. Ba'zida kattalar uning imkoniyatlarini past baholashini aytadi. Izohlash so'ralganda esa: "men shubhasiz yaxshi bolaman, lekin onam ba'zida meni betartiblikda ayblaydilar".

Adekvat baholash shkalasi bo'yicha natijalarga nazar tashlar ekanmiz sinaluvchilar orasida ahamiyatli ko'rsatkichga 16,5% ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Topshiriqni o'ylab ko'rib, o'zini ikkinchi yoki uchinchi zinapoyaga qo'yadi; o'z yutuq va kamchiliklarini real hayotda sodir bo'lgan voqealarga asosan izohlaydi; kattalarning fikrini inobatga oladi. Bu toifadagi bolalarda o'zini o'zi baholash ko'p hollarda o'zini o'zi imkoniyatlari darajasini anglab yetishi hamda shaxs sifatida kamol topishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar guruhida o'ziga noadekvat past baho berish 22,2% ni tashkil qiladi. Bu o'z navbatida sinaluvchilarning mavjud imkoniyatlar tizimidan to'la-to'kis foydalanmasliklari hamda imkoniyatlar tizimini to'g'ri baholay olmasliklari natijasida kelib chiqadi. O'zini quyi zinapoyalarga qo'yadi va bu tanlovini kattalar so'zi bilan izohlaydi: "Onam yomon bolasan, sendan yaxshi bola chiqmaydi deydi".

Metodika natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlaridagi mavjud sifatlarni o'ta yuqori baholaydilar. Bu albatta ularga ijtimoiy muhit, insonlar tomonidan ko'rsatilayotgan ta'sir natijasida ro'y beradi. Shuningdek, bunday tartibda baholash noadekvat tarzda ro'y berishi tadqiqot natijalaridan aniqlangan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Учеб. пособи для вузов М.: Академический проект. Альма Матер, 2005. – 698с.
2. Волков, Б.С., Волкова Возрастная психология. В 2-х частях. Ч.2: От младшего школьного возраста до юношества: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по пед. специальностям / Б.С. Волков, Н.В. Волкова, под ред. Б.С.Волкова. - М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2005. - 343 с.
3. Грейс Крайг. Психология развития / Грейс Крайг. - Серия «Мастера психологии», 2002. - 992 с..